

**ISLOM REFORMATSIYASI VA ISLOM SOTSIALIZMI**

*Ilmiy rahbar: **Shaymanov Fozil***

*Termiz Davlat Pedagogika instituti Pedagogika
va ijtimoiy fanlar fakulteti Milliy g'oya va ma'naviyat
asoslari huquq ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi*

Turdialiyeva Durdona

Annotatsiya. *Ushbu maqolada uzoq yillik tarixiy o'tmishga ega islom dini hamda u asosida vujudga kelgan rivojlanish, yuksalish bundan tashqari ziddiyatli jarayonlar haqida so'z boradi. Islom dini hamisha ilm olishga yuksak ishlarni amalga oshirishga, hamisha insonlarni yaxshilik ila ish tutishga undovchi dindir.*

Kalit so'zlar: *Islom, reformatsiya, sotsializm, tasavvuf, g'oya, mazhab, ezgulik, din, ilm-fan*

Kirish. Insoniyat rivojlanishining umumiy nisbatlariga nazar tashlasak yer yuzining ko'plab hudularida insonlar ongining o'sishiga din alohida ta'sir o'tkazib kelgan. Diniy bilimlar ba'zi hudularda rivojlanishga sivilizatsiyaga asos bo'lgan bo'lsa ba'zi hudularda turli xil muammolar dunyoviy ilmlarning bo'g'ilib rivojlanmay qolishi uchun asos bo'lib kelgan. Dinning paydo bo'lishi haqida yagona fikr yo'q. Islom dini ta'limotiga ko'ra, din – Alloh tomonidan o'z payg'ambarlari orqali bashariyat olamiga joriy etilajagi zarur bo'lgan ilohiy qonunlardir. Tabiat va insonni yaratgan, ayni vaqtda insonga to'g'ri, haqiqiy hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonchni ifoda etadigan ta'limotdir. Dunyoda asosa uchta din xristianlik, islom hamda buddizm dinlari jahon dinlari sifatida tan olinadi. Biz sizlar bilan islom dini xususida ayrim fikrlar keltiramiz.

Islom dini – bu insoniyatni tinchlik, adolat, va ezgulik yo'liga chaqiradigan birinchi diniy tizimlardan biridir. Islomning asosiy qadriyatlari insonlarning o'rtasida tinchlikni saqlash, ularni ezgulik va rahm-shafqat bilan to'ldirishga qaratilgan.



Qur'on va Hadislar, Islomni hayotga tatbiq etishning yagona yo'li sifatida tinchlik va ezgulikni ulug'laydi.

Adabiyotlar tahlili. Din dunyo, inson, mavjudotlarning kelib chiqishi, insonning yashashdan maqsadi kabi savollarga o'zicha javob beradi. Dunyoviy ilm nuqtai nazaridan din kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining ma'lum bosqichida paydo bo'lgan ijtimoiy ong shakllaridan biri. Bu dunyoqarash jamiyatning ma'lum tarixiy davr va sharoitlaridagi talablari, ehtiyojlari asosida shakllanadi. Ulug' mutafakkir Abu Nasr Forobiy dinga falsafa bilan bir qatorda haqiqatga yetishishning 2 mustaqil usulidan biri sifatida qaragan. Forobiyning fikricha, falsafadagi masalalar isbotini payg'ambarlar ramzlar shaklida bayon qilganlar. Dinga turlicha yondoshishni Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyomning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida, Ibn Rushdning ikki haqiqat nazariyasida kuzatish mumkin. 18-asr fransuz faylasuflarining dinga bo'lgan o'ziga xos yondashuvlari, 19-asrda mifologik maktab (aka-uka Ya. Grim va V. Grim, M. Myuller), antropologik maktab (L. Feyerbax) va boshqa turli yo'nalishlar paydo bo'lgan bo'lsa, 20-asrda dinni tadqiq qilish yuzasidan yana boshqacha qarash va nazariyalar (K. Yung, E. Dyurkxeym) vujudga keldi. Islomning rivojlanishiga Movarounnahrda yetishib chiqqan allomalar katta hissa qo'shdi. Imom Buxoriy kitob holiga keltirgan hadislar to'plami — „Al-Jome as-Sahih“ Islom dinida Qur'oni Karimdan keyingi ikkinchi manba hisoblanadi. Buxoriy va uning safdoshlari Islom ilohiyotining barcha yo'nalishlari bo'yicha muhim tadqiqotlar qildilar. Jumladan, Islom nazariyotchiligida yuqori baholanadigan „Ilal ashshariat va Xatm ul-Asliyyot“ risolasini ta'lif etgan Hakim Termiziy, Islom huquqshunosligini o'rganishning asosiy qo'llanmasi hisoblangan „Hidoya“ning muallifi Burhoniddin Marg'inoniy, Islom aqidasi asoslarini muayyan tartibga solgan, kalom ilmida maktab yaratgan Imom Moturidiy (qarang Moturidiylik), buyuk faqih Abu Lays Samarqandiy, musulmon dunyosining eng e'zozli muxaddislaridan Iso Termiziy, qomusiy ilmlar sohibi, xususan, tafsir, hadis, shariat qonunshunosligida salmoqli asarlar bitgan Zamaxshariy, tasavvufda o'ziga xos iz qoldirgan Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Mahdumi A'zam, Najmiddin Kubro, So'fi Olloyor, Xo'ja Ahror, Abduxoliq G'ijduvoni va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin. Ular musulmon



e'tiqodini xalq dunyoqarashi bilan uyg'unlashtirganliklari tufayli O'rta Osiyoda madaniy hayotning adabiyot, me'morlik, musiqa kabi sohalarida taraqqiyot yuzaga keldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada islom dini uning mazhablari, aholisi islom diniga e'tiqod qiluvchi mamlakatlarda vujudga kelgan rivojlanish jarayonlari yoxud siyosiy qaltis vaziyatlar xususida ma'lumotlar jamlangan.

Tahlil va natijalar. Islom VII asrda Hijozda paydo bo'ldi. Uning asoschisi Muhammad sanaladi. Islom dinining paydo bo'lishi xususida Islom manbalariga asoslangan diniy an'anada u ilohiy hodisa, insonlarni to'g'ri yo'lga solish uchun Alloh taolo tomonidan yuborilgan oxirgi ta'limot deb hisoblanadi. Islom talqinida dastlab yahudiy va xristianlar ham aynan musulmonlar e'tiqod qilgan xudoga ishonganlar. Shu Xudo, ya'ni Alloh odamlarga payg'ambarlar va elchilar yuborgan, ammo insonlar payg'ambarlar ta'limotini buzganlar. Shuning uchun Alloh insonlarga oxirgi rasul etib Muhammadni tanladi, unga o'zining kalomi — Qur'on nozil qildi. Muhammad oldin o'z hamshaharlarini, so'ng barcha arablarni ko'plab qabila xudolariga sig'inishdan voz kechish va yagona Xudo — Allohga e'tiqod qilish, solih hayot kechirish, u dunyoda jannatga tushish uchun bu dunyoda ezgu ishlar qilishga da'vat etdi. Qur'onga ko'ra, arablar va yahudiylarning umumiy bobokaloni Ibrohim Allohga birinchi bo'lib imon keltirgan. Demak, Islom batamom yangi e'tiqod emas, balki Ibrohimga nozil bo'lgan dinidir. Islom ezgulik va insonparvarlik dinidir. Qur'oni Karimda insonlarga rahm-shafqat qilish, yaxshi muomalada bo'lish haqida ko'p bora ta'kidlanadi. Islomning asosiy maqsadlaridan biri – yaxshilik va adolatni targ'ib qilishdir. Islomda zakot, sadaqa kabi amallar orqali yordamga muhtojlarga yordam berish va ijtimoiy tenglikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Bu nafaqat dindoshlar, balki barcha insonlarga nisbatan yaxshi muomalada bo'lishni anglatadi. Qur'oni Karimda: «Diniy masalalarda majburlash yo'q»¹, – deb ta'kidlanadi. Bu – har bir inson o'z dinini tanlashda erkin ekanini anglatadi va Islomning bag'rikengligidan dalolat beradi. Shuningdek, Islom urushlarni qat'iyan qoralab, faqatgina himoya maqsadida va zaruriyat bo'lgandagina jang qilish

¹ Qur'oni Karim . BAQARA SURASI, 256 OYAT.



mumkinligini ko'rsatadi. Bu Islomning tinchlikparvarlik mohiyatini yana bir bor isbotlaydi. Islom dinining muhim xususiyatlaridan biri — uni qabul qilgan xalqlar vakillari uchun Islom aqidalarini ishlab chiqishda ishtirok etish imkoniyatini berganidadir. U o'ziga xos 3 taraqqiyot bosqichi yoki davrni o'tadi. Birinchisini, shartli ravishda, Qur'on davri deb atash mumkin. Qur'oni Karimda o'z aksini topgan Arabiston aholisining diniy ongi darajasini ifoda etuvchi diniy-siyosiy va ijtimoiy qarashlar, huquqiy va axloqiy mezonlar butun musulmon olami uchun hozirgacha shak-shubhasiz umumiy qadriyat hisoblanadi. Deyarli 4 asr davom etgan ikkinchi davr Islomda umumislomiy ahkomlar hukmronligi ostida turli fikrlar yo'l qo'yilgani bilan ajralib turadi. Islomdagi yo'nalishlar, mazhablar va fiqrlar ana shu davrda paydo bo'ldi.

Sotsializm bir qator iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarni o'z ichiga olgan siyosiy falsafiy harakat bo'lib xususiy mulkdan farqli ravishda ishlab chiqarish vositalariga ijtimoiy mulkchilik bilan tavsiflanadi. U atama sifatida bunday tizimlarni amalga oshirish bilan bog'liq iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy nazariyalar va harakatlarni tavsiflaydi. Sotsializmning har xil turlari bozorlar va resurslarni taqsimlashda rejalashtirishning roli, tashkilotlardagi boshqaruv tuzilmasi va pastdan yoki yuqoridan yondashuvlarga qarab farqlanadi, ba'zi sotsialistlar partiya, davlat yoki texnokratik partiyani yo'qlaydi.

Islom sotsializmi – Turli musulmon olimlari va siyosatchilari tomonidan kiritilgan atama. Musulmon sotsialistlari Qur'on va Muhammad payg'ambar ta'limotlari ijtimoiy adolat, erkinlik va ijtimoiy tenglik tamoyillariga mos keladi, deb hisoblashadi. Islom sotsializmi – Turli musulmon olimlari va siyosatchilari tomonidan kiritilgan atama. Musulmon sotsialistlari Qur'on va Muhammad payg'ambar ta'limotlari ijtimoiy adolat, erkinlik va ijtimoiy tenglik tamoyillariga mos keladi, deb hisoblashadi.

1969-yil 1-sentabrda 28 yoshli polkovnik Muammar Qazzofiy boshchiligidagi "erkin zobitlar" guruhi Misr maxfiy xizmatlarining faol ko'magida davlat to'ntarishini amalga oshirib, monarxiyani ag'dardi. O'sha paytda Turkiyada davolanayotgan podshoh Idris Misrga qochib ketdi. Inqilobiy qo'mondonlik kengashi



(IQK) boshchiligidagi yangi rejim Liviya Arab Respublikasini e'lon qildi. Kengashning shiori „erkinlik, sotsializm va birlik“ edi.

1969-yil dekabr oyida arablarning birligini davlatning eng muhim vazifasi deb e'lon qilgan muvaqqat konstitutsiya e'lon qilindi. Arablarning siyosiy birligi g'oyalari ommaviy siyosiy partiya – Arab sotsialistik ittifoqining asosini tashkil etdi.

1971-yil iyun oyida partiyaning tashkil etish to'g'risidagi farmon e'lon qilindi, boshqa siyosiy partiyalarning faoliyati taqiqlandi. Partiyaning asosiy vazifasi xalqning asosiy qismini hukumatga jalb qilish va Liviya inqilobi rahbari tomonidan amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlarda ishtirok etish edi. Yangi hukumat, Falastin mojarosida faol pozitsiyani egallash, arablar birligini targ'ib qilish, ijtimoiy adolat, ekspluatatsiya qilmaslik va boylikni teng taqsimlash tamoyillariga asoslangan ichki siyosat yuritish maqsadlarini e'lon qildi. Buyuk Britaniya va Qo'shma Shtatlar deyarli ultimatum shaklida Liviyadagi harbiy mavjudligini imkon qadar tezroq yo'q qilishni talab qildilar. Britaniya (1970-yil 28-mart) va Amerika (1970-yil 11-iyun) harbiy bazalari olib chiqib ketilgan kunlar mamlakatda milliy bayramlar sifatida nishonlandi.

Xulosa va takliflar. Sotsializm inson xususiy mulkdan tamoman ajratiladi. Oqibatda inson o'z individual xususiyatlaridan ham mahrum etiladi. U "omma"ga aylanib, o'z „meni“ni yo'qotadi. Jamiyatda zo'ravonlik, tobelik kuchayadi. Islom dini hammani birlikka qon to'kmaslikla chaqirar ekan barcha musulmon aholi bir birini hamda o'zga din vakillarini hurmat qilishi hamkorlikda faoliyat olib borishi lozim. Zero har bir shaxs dunyoda demokratik tamoyillar asosida yashash ga hayot kechirishga haqlidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qur'oni Karim . BAQARA SURASI, 256 OYAT.
2. Imom al-Buxoriy "Al jome as-sahih"
3. Burhoniddin Marg'inoniy " Hidoya"
4. John Esposito, ed (1995). "Socialism and Islam". Oxford Encyclopedia of the Modern Islamic World.
5. Oxford University Press. 81-86 b. ISBN 0195066138. OCLC 94030758.



6. Патиев, Х. (2023). ЖАДИДЧИЛИК ҚАРАШЛАРИ НЕГИЗИДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЙЎНАЛИШЛАРНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА ЖАМИЯТДА РИВОЖЛАНИШИ. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences*, 3(11).
7. Ikromovich, P. X. (2023). Jadid ma'rifatparvarchiligi shakllanishidagi tarixiy shart-sharoit va obektiv zaruriyat. *Finland International Scientific Journal of Education. Social Science & Humanities*, 11(3), 167-179.
8. Xoldor, P. (2024). JADIDCHILIK G 'OYALARI TARG 'IBOTINING IQTISODIY MUOMMOLARGA NISBATAN IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLILI. *Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal*, 2(1), 281-285.
9. PATIYEV, X. (2024). JADID MA'RIFATPARVARLARI QARASHLARIDA FARZAND TARBIYASINING IJTIMOIIY-FALSAFIY TASNIFI. *News of the NUUZ*, 1(1.10. 1), 166-168.
10. Ikromovich, P.K. JADIDIZM HARAKATINING MOHIYINING IJTIMOIIY-FALSAFIY YONDORISHI. *Amerika ijtimoiy fanlar va insoniyat tadqiqotlari jurnali*, 4 (11), 175-181.
11. Хамраев, С. Ш. (2022). O'ZBEKISTONDA EKOTURIZM BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYA JARAYONLARINI INTEGRATIONSYALASH ZARURATI. *Восточный ренессанс: Инновационные, образовательные, естественные и социальные науки*, 2(12), 524-528.
12. Xamrayev, S. (2024). FALSAFIY YONDASHUVNI YUZAGA KELTIRUVCHI OMILLAR. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 6(57), 88-90.
13. Sardorbek Sharafutdinovich Xamrayev (2024). TURIZM ETIKASINING JAMIYATDAGI IJTIMOIIY-FALSAFIY MOHIYATI. *Academic research in educational sciences*, 5NUU Conference (2), 753-758.
14. Rakimkulovich, R. F. (2024). PROBLEMS ENSURING NATIONAL SECURITY IN THE FIELD OF INFORMATION AND PROTECTING AGAINST THREATS ON THE INTERNET. *FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA*



INNOVATSIYA JURNALI| JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE
AND INNOVATION, 3(6), 119-121

15. Rahimkulovich, R. F. (2024). PHILOSOPHICAL ASPECTS OF THE
FORMATION OF THE SENSE OF NATIONAL IDENTITY. International Journal
of Philosophical Studies and Social Sciences, 4(2), 1-6.

16. Farxod Raximkulovich Raxmankulov (2024). VATANARVAR
MULKDORLARNI TARBIYALASH BUGUNGI DAVRNING DOLZARB
VAZIFASI. Academic research in educational sciences, 5NUU Conference (2), 536-
543.